

QISHLOQ XO'JALIGIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA UNING AHAMIYATI.

Umirov Islombek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali o'qituvchisi

Pardayeva Oozda Mamayunusovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Yashil iqtisodiyot va barqaror bines kafedrasi" mudiri, dotsent

Qurbonova Malika Maxmud Qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali II-bosqich talabasi.

Annotatsiya: *Maqolada qishloq xo'jaligida tadbirkorlikni rivojlantirish hamda qishloq xo'jaligida tadbirkorlikni yo'lga qo'yishning ahamiyati keltirib o'tilgan. Shuningdek agrar sohada tadbirkorlikni yo'lga qo'yishda olimlarning fikrlari o'rganilgan va tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Agrar tadbirkorlik, bozor islohoti, aqlli qishloq xo'jaligi, agroservis*

KIRISH

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi boshqa sohalarga qaraganda iqtisodiyotda yetakchi tarmoq hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda aholi bandligini ta'minlash bilan birga aholi uchun oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun bir qancha imkoniyatlar mavjud. Qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirib borish bozor islohotining bosh yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Agrar tadbirkorlik har qaysi mamlakatda va uning ayrim hududlaridagi aniq demografik va iqtisodiy holatlarni hisobga olgan holda rivojlanadi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi sohasida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumki mamlakatimiz aholi soni yildan yilga oshib bormoqda. Shuningdek aholining bandligi iqtisodiyotda ishsizlikning kamayishiga olib keladi. O'z navbatida aholining o'z o'zini band qilishi mamlakat iqtisodiy o'sishining asosiy omili deb qarasaq mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida 2022 yil 28 yanvardagi PF60 - son Farmonida keltirilgan maqsadlaridan biri

-tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish,

-xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi

-ulushini 60 foizga yetkazish hamda qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish,

-qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish belgilangan.

Farmonga muvofiq tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish orqali aholi o'zlarining daromadi manbalarini oshirishi uchun imkoniyat yaratiladi. Agrar sohada tadbirkorlikni yo'lga qo'yish mamlakatimizning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra mamlakatimiz hududida faoliyat ko'rsatib kelayotgan tadbirkorlik sub'ektlar soni 2023- yil 1-mart holatiga 33 105 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 186,0 foizni tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi)

quyidagicha bo'ldi: savdo - 34,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 20,6 foiz, sanoat - 15,0 foiz, qurilish - 9,2 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 5,5 foiz, tashish va saqlash - 3,0 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,1 foiz, axborot va aloqa - 1,4 foiz, boshqa turlari - 9,0 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy jihatdan olib qarasaq mamlakatimiz aholisi 2022 yilning har bir oyida o'rtacha 62,8 ming kishiga oshgan. Aholi o'sishi bilan mehnatga layoqatli aholi o'zining tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ysa, mamlakatimizda kambag'alchilikni qisqartirishda muhim omil hisoblanadi. Mamlakatimizda hozirgi kunda kambag'alchilik sur'atini pasaytirish uchun davlat tomonidan aholi uchun moddiy yordam ajratilmoqda. Albatta bu moddiy yordam, uzoq muddatli kreditlar aholi o'zini o'zi band qilishga qaratilgan. Bundan tashqari agrar sohada tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish strategiyalari ishlab chiqilmoqda. Ya'ni agrar sohada tadbirkorlik sub'ektlari uchun uzoq muddatga lizing asosida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bilan bir qatorda tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun moliyaviy asos hisoblanadi. Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan aqlli agrar soha uchun kiritilayotgan investitsiyaning ham asosi hisoblanadi. Mamlakatimiz rahbari tijorat banklaridan kredit olishni osonlashtirishi natijasida mamlakat aholisi tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun yana bir imkoniyat desak mubolag'a bo'lmaydi. "Ish quroling soz bo'lsa-mashaqqating oz bo'lar" deganlaridek hech bir tadbirkorlik texnika texnologiyalarsiz bo'lmaydi. Mamlakatimiz rahbarining 2018-yil 29-maydagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga mexanizatsiya va servis xizmatlarini ko'rsatish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga binoan "O'zagroservis" aksiyadorlik jamiyati tomonidan zamonaviy yangi turdagi texnologiyalar bilan ta'minlandi.



Shu bilan bir qatorda mamlakatimiz rahbari agrar sohaning turli yo'nalishlarida aholi tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadida keng imkoniyatlar yaratilgan. Xususan agrar sohaning bog'dorchilik, chorvachilik, uzumchilik, meva-sabzavotchilik, dehqonchilik va boshqa yo'nalishlarida muhim amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan bir qatorda tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ygan tadbirkorlik sub'ektlari uchun subsidiyalar ajratilmoqda. Bugungi kunda aynan agrar sohada tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish yildan yilga

rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizning turli viloyatlar kesimida tadbirkorlik sub'ektlarini sonini ko'rib chiqadigan bo'lsak 2023-yilning 1-dekabr holatiga ko'ra tadbirkorlik sub'ektlar soni 428 396 ta ni tashkil etgan. Hududlar kesimidan oladigan bo'lsak quyidagicha taqsimlanadi

Aynan agrar sohada tadbirkorlik sub'ektlari iqtisodiy muamolar ya'ni aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirish, ularga iste'mol uchun yetkazib berish bilan birga aholi bandligini ta'minlash muamolarini ham hal qiladi. Hozirgi kunda daromadli yo'nalishlardan biri desak ham mubolag'a bo'lmaymiz. Har bir sohada olimlarning turlicha qarashlari va qarama-qarshi fikrlari mavjud bo'lib, har sohada tadbirkorlikni muvafaqqiyatli shakllantirish shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlarining asosida foyda olish va investitsiya kiritish deya ham ta'riflanadi.

Xulosa va takliflar: Agrar sohada tadbirkorlik sub'ektlari uchun keng imkoniyatlar yaratilib bir qancha cheklovlar olib tashlandi. Shuni ham aytish lozimki mamlakat iqtisodiyoti biz so'z bilan aytganda qishloq xo'jaligi tushuniladi. Aholining oziq-ovqat bilan to'yinganligi, agrar sohada aholining bandligini ta'minlash bularning barchasi mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun muhim yo'nalishlar hisoblanadi. Agrar sohada tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish keng kategoriya va ijtimoiy-iqtisodiy omil hisoblanadi. Ta'kidlash joiziki so'nggi yillarda mamlakatimizda agrar sohada kichik biznes hamda oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'yish borasida bir qator ilmiy amaliy ishlar olib borilmoqda. Ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bozor mexanizmini yo'lga qo'yish hamda rivojlantirish hamda aholi bandligini ta'minlashda tadbirkorlar hozirgi kunda yuqori kategoriyada turmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Nurmatov.N.J; Ro'ziyev.O.A; Berdiyev.S.R
2. "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini davlat tomonidan qo'llabquvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi VazirlarMahkamasining 2003-yil 14-fevraldagi 79-sonli Qarori.
3. Abdug'aniyev A. Tadbirkorlikda xarajatلامي rejalashtirish. "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" 2001. -N26
4. O'zbekistonda mehnat va bandlik. O'zbekiston respublikasi davlat statistika qo'mitasi ctatistik to'plami. T.: 2015. 34 b.
5. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, moliyaviy va shartnomaviy munosabatlarni rivojlantirish bosh boshqarmasi.Agro.uz
6. O'zbekiston Respublikasi aholisi statistikasi. Stat.uz. Statistika boshqarmasi.